

## MUROJAATLAR BILAN ISHLASH ORQALI HUQUQBUZARLIKLAR VA JINOYATCHILIKKA QARSHI KURASHISH: HUQUQIY MEXANIZMLAR VA SAMARADORLIK



**MURZAJANOV**  
**Shavkatbek Gafurovich**  
O'zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti  
ilmiy xodimi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlari bilan ishlashning huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashishga ta'siri baholanadi. Murojaatlar tizimi jinoyatlarni barvaqt aniqlash va korrupsiya xavflarini pasaytirish uchun muhim mexanizm sifatida ko'rib chiqiladi. Davlat organlari faoliyatida murojaatlardan olingan ma'lumotlarni tahlil qilib, huquqiy ta'sir choralari takomillashtirish borasida takliflar ilgari suriladi.

**Kalit so'zlar:** murojaat, jinoyatchilikka qarshi kurash, profilaktika, davlat organlari, huquqiy ta'sir, qonun ustuvorligi, jamoat xavfsizligi.

**Аннотация.** В настоящей статье исследуется характер влияния системы обработки обращений граждан и юридических лиц на общую эффективность предупреждения преступности и противодействия правонарушениям. Рассматриваемый институт обращений позиционируется как ключевой превентивный инструмент, способствующий раннему обнаружению деликтных факторов и минимизации коррупционных рисков в государственном секторе. На основе мониторинга сведений, извлекаемых из поступающих заявлений, авторами сформулированы научно обоснованные предложения, направленные на модернизацию механизмов правового воздействия и совершенствование деятельности органов государственной власти в сфере обеспечения законности.

**Ключевые слова:** заявления граждан, противодействие преступности, деликтологическая превенция, публично-властные институты, меры правового воздействия, верховенство права, общественная безопасность.

**Abstract.** This paper evaluates the conceptual impact of processing public and institutional inquiries on the overall efficacy of crime prevention and law enforcement strategies. The petition system is examined as a pivotal proactive mechanism designed for the early detection of underlying criminal anomalies and the mitigation of systemic corruption risks within public administration. By analyzing empirical insights derived from citizen grievances, the study outlines strategic recommendations aimed at optimizing current legal response mechanisms and upgrading the counter-crime frameworks deployed by state authorities.

**Keywords:** public petitions, counter-crime initiatives, delinquency prevention, state agencies, legal response metrics, rule of law, public safety.

Davlat organlarining jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlari bilan ishlash faoliyati faqatgina ma'muriy usullardan iborat emas, balki ijtimoiy adolatni ta'minlashning muhim vositasi hamdir. Bugungi islohotlar davrida aynan murojaatlar davlat organlariga haqiqiy vaziyatni va real muammolarni ko'rsatuvchi "ko'zgu" vazifasini o'taydi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan "Xalq davlat organlariga emas, davlat organlari xalqqa xizmat qilishi kerak" [1], degan prinsip murojaatlar bilan ishlash tizimini tubdan o'zgartirdi. Bugungi kunda murojaatlar tizimi faqatgina shikoyatlar to'plami emas, balki jinoyatchilikni jilovlashning eng samarali ijtimoiy mexanizmiga aylandi.

Huquqbuzarliklarning oldini olish va jinoyatchilikka qarshi kurashishda davlat organlarining murojaatlar bilan ishlashi huquqiy ta'sirni ta'minlovchi boshqa ilmlarning o'zaro kesishuvi hisoblanadi. Bu sohada o'zbek olimlari tomonidan bir qator izlanishlar olib borilgan.

Masalan, I. Ismailov huquqbuzarliklar profilaktikasiga oid tadqiqotlarida jinoyat sodir etilishiga yo'l qo'ygandan ko'ra, uning erta aniqlash va barvaqt oldini olish mexanizmlarini ishlab chiqish masalalariga alohida e'tibor qaratadi.

Olim jinoyatchilikka qarshi kurashishda faqat huquqiy choralarga emas, balki ijtimoiy va maishiy muammolarni hal etishga urg'u beradi. U jinoyatlarni har bir mahalla, oila va shaxs kesimida o'rganish va bartaraf etishni muhim deb hisoblaydi.

Darhaqiqat, "mahallabay" va "oiladay" ishlash usullari jinoyatchilik xavfini barvaqt aniqlashning samarali mexanizmi hisoblanadi [2]. Chunki ijtimoiy-maishiy muammolar hal qilinmasa, jinoyatchilikni faqat jazo choralari bilan kamaytirish kutilgan natijani bermaydi.

Hamkorlik mexanizmlarida huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshiruvchi subyektlar (ichki ishlar organlari, davlat idoralari va jamoatchilik tashkilotlari) o'rtasidagi aloqalarni takomillashtirish hamda ularning tashkiliy-huquqiy asoslarini rivojlantirish kerak bo'ladi.

"Xavfsiz mahalla" tamoyili doirasida ijtimoiy muhitda huquqbuzarlikning har qanday ko'rinishiga qarshi jamoatchilikda qat'iy immunitet va murosasizlik kayfiyatini qaror toptirish lozim. Hududlarning kriminogen barqarorligidan kelib chiqib, shartli ravishda "qizil", "sariq" va "yashil" toifalarga tasniflash hamda manzilli profilaktika tizimini tashkil etish ilmiy-amaliy jihatdan yuqori samara beradi.

Professor I. Ismoilovning fikricha, "huquqbuzarliklar profilaktikasi – bu faqat davlat organlarining vazifasi emas, balki keng jamoatchilik va fuqarolar o'rtasidagi faol hamkorlikning natijasidir" [2].

Olim jinoyatchilikka qarshi kurashishda murojaatlar tizimining rolini yuqori baholaydi. Bu jarayon huquqbuzarliklar profilaktikasida birgalikda kurashishning muhim qismi ekanligini ta'kidlaydi. Uning fikriga ko'ra, jinoyatchilikka qarshi kurashish va profilaktika tizimi faqat davlatning vazifasi

bo'lmasligi kerak. Uning samaradorligi fuqarolar bilan o'rnatilgan oshkora va doimiy aloqalarga to'g'ridan-to'g'ri bog'liq.

Nazarimizda, I. Ismailov taqdim etgan profilaktikaga tizimli yondashuv va B. Axmedovning murojaatlarni davlat boshqaruvi indikatori sifatida baholash borasidagi fikrlari jinoyatchilikni jilovlashning "ijtimoiy nazorat – barvaqt profilaktika" mexanizmining ajralmas qismi sifatida namoyon bo'ladi. Profilaktika jinoyatchilik determinantlariga tizimli ta'sir ko'rsatadi [3].

Ushbu solishtiruvning asosiy mantig'i shundaki, agar profilaktika tizimli bo'lsa (murojaatlar bu tizimga ma'lumot yetkazadi), u holda murojaatlar tizimi profilaktika jarayonida muhim rol o'ynaydi.

B. Axmedov ta'kidlaganidek, murojaatlar davlat boshqaruvidagi xato va kamchiliklarni aniqlash uchun signal hisoblanadi. Murojaatlarni to'g'ri tahlil qilish orqali jamiyatda nazorat uchun yangi imkoniyatlar yaratilishi va jinoyatlarning sodir bo'lishidan avval (barvaqt) ixtiyoriy oldi olish mumkin bo'ladi [4].

B.R. Axmedovning fikricha, davlat organlarining xalqqa xizmat qilishi va murojaatlarni sifatli ko'rib chiqishi boshqaruvdagi xavflarni kamaytiradi. I. Ismailov nazariyasiga asoslanganda esa, bu jarayon jinoyat sodir bo'lishiga imkon beruvchi shart-sharoitlar (determinantlar) to'laqonli yo'qolishiga xizmat qiladi.

Shuning uchun murojaatlar bilan ishlash faqatgina ma'muriy vazifa sifatida qabul qilinmay, balki jamiyatning kriminologik xavfsizligini ta'minlovchi samarali vosita hisoblanadi. B. R. Axmedovning fikriga ko'ra, agar davlat idoralari murojaatlarni diqqat bilan tahlil qilsa va muammolarga yechim topsa (xalqqa xizmat qilsa), odamlar o'rtasida norozilik sezilarli darajada kamayadi va boshqaruvda tartib o'rnatishga erishiladi. Bu esa tizimning to'g'ri ishlayotganini anglatadi.

Jinoyatlarga qarshi kurashishda kichik muammolar (masalan, qo'shnilar orasidagi nizolar) murojaat qilingan vaqtida hal etiladigan bo'lsa, bu nizolar keyinchalik jinoyatlarga aylanmasligiga yordam beradi. Bu holat, huquqbuzarliklarni profilaktika qilishdagi muhim mexanizm sifatida, o'z vaqtida jinoyatning ildizini bartaraf etishi mumkin.

Demak, davlat organlarining murojaatlar bilan ishlash tizimi jamiyat va davlat o'rtasidagi

determinantlarni aniqlashda muhim indikator hisoblanadi. Fuqarolarning murojaatlari orqali ijtimoiy nazoratning amalga oshirilishi tizimdagi deviant xulq-atvorni erta aniqlash imkonini beradi. Davlat organlarining huquqiy ta'sir choralari esa barvaqt profilaktikaning samaradorligini ta'minlaydi. Natijada, deliktual holatlar sodir bo'lgunga qadar ularning kelib chiqish sabab va sharoitlarini imkon darajasida bartaraf etishning samarali mexanizmi tashkil etiladi.

Davlat organlari xalqqa xizmat qilishi kerakligi tamoyili Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan bo'lib, bugungi kunda "mahallabay" ishlash tizimining asosini tashkil etmoqda [5]. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi doirasida mahallani jinoyatchilikdan xoli hududga aylantirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Bunda aholi murojaatlari faqat muammolarni hal qilishda emas, balki hududlarda huquqbuzarliklarini barvaqt aniqlash va profilaktika qilishda samarali axborot manbai bo'lib xizmat qilmoqda.

Davlatimiz rahbari "profilaktika ishlari aniq statistik ma'lumotlar, jinoyatchilikni chuqur tahlil qilish va har bir hududning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqarish lozim", deb ta'kidlagan edi [6]. Ushbu ko'rsatma ichki ishlar organlari faoliyatida, tizimdagi mavjud muammolarni aniqlash va kelajak vazifalarini belgilashda dasturilamal bo'lib xizmat qilmoqda. Shuningdek, "profilaktika kuni" (har payshanba) tadbirlari rasmiyatchilik uchun emas, balki aniq statistik tahlil va hududning kriminogen vaziyatiga muvofiq tavsiflanishi zarurligi birinchi marta qat'iy belgilangan.

Yurtboshimiz tomonidan belgilangan vazifalar profilaktika tizimini jinoyatga javob berish bosqichidan jinoyatlarni barvaqt prognoz qilish va oldini olish bosqichiga o'tkazishda asosiy omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Mahallani sog'lomlashtirish jarayonida murojaatlar institutining funksional ahamiyati ikki karra diqqatga sazovor. Bir tomondan, murojaatlar oqimi lokal hududdagi yashirin muammolar xaritasini shakllantiruvchi element hisoblanadi. Infratuzilmaviy va maishiy yetishmovchiliklardan kelib chiqadigan e'tirozlar jamiyatda kriminogen vaziyatni murakkablashtiradi. Bunday holat, o'z navbatida, maishiy munosabatlarning keskinlashuviga olib keladi va shaxslarga qarshi agressiv jinoyat-

larning paydo bo'lishi uchun kriminal determinantlarni shakllantiradi.

I. Ismailov ta'kidlaganidek, jinoyatning sabab va sharoitlarini aniqlash uni jilovlashning asosiy omilidir. Murojaatlarni to'g'ri tahlil qilish, ularning kelib chiqish sabablarini o'rganish va o'z vaqtida choralar ko'rish orqali jinoyatlarning oldini olish mumkin. Buning uchun murojaatlarga juda katta e'tibor berish va mas'uliyat bilan yondashish talab qilinadi.

Tizimning ikkinchi muhim jihati, zamonaviy profilaktika modelining yaratilganligidir. Bunda "mahalla yettiligi" konsepsiyasi doirasida murojaatlarning sifat va miqdor ko'rsatkichlaridan kriminologik prognozlash vositasi sifatida foydalanish ustuvor ahamiyat kasb etadi. Masalan, muayyan oiladagi vaziyat bo'yicha murojaatlarning takrorlanishi kriminogen vaziyatning murakkablashganini anglatuvchi birlamchi signal sifatida xizmat qiladi. Bunday sharoitda davlat va jamiyat institutlarining vazifasi jinoiy qilmishni kutish emas, balki viktimizatsiya jarayonining oldini olishga qaratilgan kompleks tadbirlarni faollashtirishdan iboratdir.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, lokal darajada murojaatlarning sistematik va maqsadli hal etilishi hududning kriminogenlik indeksini 15-20 foizga pasaytirish imkonini beradi. Ushbu jarayonning ijtimoiy-psixologik jihati shundaki, davlat tuzilmalari ijtimoiy so'rovlarga tezkor va adolatli munosabat bildirganda, bu aholining huquqiy ongini yuksaltirishga yordam beradi. Aholida qonun ustuvorligiga bo'lgan ishonchni kuchaytirib, jinoiy xulq-atvorni yuzaga keltiruvchi destruktiv omillarni susaytiradi.

Qisqa qilib aytganda, murojaatlar tizimi jinoyatchilikni jilovlashning majburiy bo'lmagan, lekin eng insonparvar va samarali usuli hisoblanadi. "Mahallabay" ishlash, murojaatlarning tub ildiziga yetib borish — mahallada xavfsiz muhitni ta'minlashning asosini tashkil qiladi.

Hududiy ichki ishlar organlarining boshqa boshqaruv organlari, masalan, hokimiyat va mahalla bilan hamkorligining huquqiy asoslari mazkur organlarning yagona maqsadga xizmat qilishini ta'minlaydi. Huquqbuzarliklarni bartaraf etishga faqatgina ichki ishlar organlari mas'ul emas, balki barcha davlat organlarining hamkorligi asosida

amalga oshirilishi kerak. Bu o'ta muhim bo'lib, jinoyatchilik muammosi bilan kurashishda turli idoralar o'rtasidagi o'zaro aloqaning ahamiyatini anglatadi.

Har bir faoliyatda ijtimoiy-iqtisodiy elementlarni hisobga olish jinoyatchilikka qarshi kurashishda muhim ahamiyat kasb etadi. Murojaatlarni to'g'ri va tizimli ko'rib chiqish jinoyatlarning oldini olishda muhim mexanizm bo'lib, fuqarolarning ijtimoiy muammolari haqida kerakli axborotni olishda asqatadi.

Fuqarolarning murojaatlari davlat organlari va jamiyat o'rtasidagi aloqaning samarali vositasini tashkil qilgani bois, ular ijtimoiy xatarlarni aniqlashda muhim vazifani bajaradi. Shuningdek, murojaatlarning tahlili muammolarni o'z vaqtida aniqlash va ushbu muammolarga tezkor chora ko'rish imkonini yaratadi [7]. Fuqarolar tomonidan kelayotgan ariza, shikoyat va takliflar yuzasidan olingan ma'lumotlar jinoyatchilik va huquqbuzarliklarni tizimli ravishda aniqlashda va ularni hal qilishda muhim ahamiyatga ega.

X.T. Azizov ta'kidlaganidek, murojaatlarga befarqlik jamiyatda huquqiy nigilizmning kuchayishiga va fuqarolarning profilaktika tizimidagi roli susayishiga sabab bo'ladi. [8] Shu ma'noda, agar davlat organlari murojaatlarga tezkor va adolatli munosabat bildirs, bu fuqarolarda qonunga bo'lgan ishonchni mustahkamlashga, ularni huquqbuzarliklar haqida faol xabar berishga undaydi. Aksincha, murojaatlarga befarq munosabat yoki formal yondashuv jinoyatchilikning oshishiga, jamoatchilik ishonchining susayishiga olib kelishi mumkin [9].

Murojaatlarni ko'rib chiqish jarayonida davlat organlari tomonidan amalga oshiriladigan tekshiruvlar ham jinoyatchilikka qarshi kurashishda muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki har bir murojaat bo'yicha o'tkazilgan tekshiruv natijasida huquqbuzarliklarning sabablari va shart-sharoitlari aniqlanib, bunga muvofiq chora-tadbirlar ishlab chiqiladi. Bu esa profilaktika samaradorligini oshiradi.

Bundan tashqari, murojaatlarni tahlil qilish orqali muayyan hudud yoki sohada jinoyatchilik turlarini aniqlash imkoniyati paydo bo'ladi. Bu ma'lumotlar asosida davlat organlari maqsadli profilaktika choralari belgilab, resurslarni

samarali taqsimlashlari mumkin. Masalan, agar ma'lum bir hududda maishiy zo'ravonlik hodisalari ko'paygan bo'lsa, ushbu yo'nalishda tegishli chora-tadbirlar kuchaytiriladi.

Rivojlangan xorijiy davlatlar tajribasi ham shunday ko'rsatadiki, fuqarolar murojaatlari bilan samarali ishlash jinoyatchilikka qarshi kurashishda muhim omil hisoblanadi. Rivojlangan mamlakatlarda elektron murojaatlar tizimi, ishonch telefoni va onlayn platformalar orqali aholidan kelayotgan ma'lumotlar doimiy tahlil qilinib, jinoyatchilikka qarshi kurashish strategiyasini shakllantirishda faol qo'llaniladi.

Shu bois, murojaatlarga jinoyatchilikka qarshi kurashishda jinoyatlar haqidagi axborot manbalarini, profilaktika mexanizmlarini, jamoatchilik nazoratini hamda davlat organlarining faoliyati samaradorligini baholashda muhim vosita sifatida qaraladi. Davlat organlarining murojaatlar bilan ishlash tizimini takomillashtirishi jinoyatchilikni kamaytirish va huquqiy tartibotni mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega.

B.B. Dadajonov o'z tadqiqotlarida, murojaatlar tizimi profilaktika sohasida to'rtta asosiy funksiyani bajarishini ta'kidlaydi. *Birinchi*dan, u tayyorlangan jinoyatlar haqida xabar beruvchi indikator vazifasini o'taydi. *Ikkinchi*dan, ijtimoiy va maishiy muammolar (ishsizlik, nizolar) orqali jinoyat sabablarini aniqlash imkonini beradi. *Uchinchi*dan, doimiy tazyiq ostidagi xotin-qizlar uchun potensial qurbonlarni aniqlash hamda ularni himoya qilishda xizmat qiladi. To'rtinchidan, mas'ul organlar xodimlarining kamchiliklarini aniqlab, tizimda ichki tuzatishlarni amalga oshirish imkonini yaratadi.

Rossiyalik olim A.I. Dolgovaning tadqiqotlarida jinoyatchilikning "tizimli determinatsiyasi" singari muhim jihatlar ham e'tiborga olinishi zarurligi ta'kidlanadi. Ushbu yondashuv jinoyatchilikni aniqlash va bartaraf etishdagi samaradorlikni oshirish uchun muhimdir [10].

Yuqorida keltirilgan mutaxassislarining fikrlari va olib borilgan o'rganishlardan kelib chiqib, mamlakatimizda huquqbuzarliklar profilaktikasi sifatini oshirish uchun quyidagi tashkiliy-huquqiy yangiliklar va tadbirlarni amalga oshirish bu yo'nalishda samarali bo'lishi mumkin:

*birinchi*si, O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari

to'g'risida"gi qonuniga yangi modda, ya'ni "Murojaatlarning kriminologik monitoringi va preventiv ta'siri" moddasi kiritish davlat organlariga mavjud murojaatlarni tahlil qilib, ijtimoiy nizolarni aniqlash jarayonida ularni kuzatishi imkonini beradi;

*ikkinchisi*, raqamli texnologiyalardan foydalanib, "Murojaatlarning kriminogen xaritasi" tizimini joriy etish, bu avtomatlashtirilgan tahlillar olib borish, murojaatlarning yig'ilishi va markazlashgan joylarni aniqlash imkonini beradi;

*uchinchisi*, Kriminologik skrining tizimini joriy etish. Murojaatlar bazasini sun'iy intellekt orqali tahlil qilish, har bir mahallaning xavflilik darajasini aniqlash va fuqarolarni ogohlantirish sistemasini yo'lga qo'yish;

*to'rtinchisi*, qayta aloqa profilaktikasini, ya'ni murojaat qilgan shaxslar bilan aloqa o'rnatgan holda, muammolari yechilgani haqida xabar berish mexanizmlarini joriy etish;

*beshinchidan*, jinoyatchilikni prognoz qilish metodikasini yaratish, ya'ni IIO xodimlari uchun murojaatlar mazmuniga asoslangan metodika ishlab chiqish, bu jinoyatchilikning barvaqt oldini olishda samaradorlikni ta'minlaydi;

*oltinchidan*, davlat organlari o'rtasida integratsiya kuchaytirish. Davlat idoralari va tashkilotlari o'rtasidagi o'zaro integratsiyani kuchaytirish va

boshqaruv samaradorligini oshirishda tizimlashtirilgan (jadval ko'rinishidagi) ma'lumotlar almashinuvi markaziy o'rin tutadi. Axborot tizimlarini muvofiqlashtirish orqali idoralararo kommunikatsiyani yangi bosqichga olib chiqish bugungi kunning ustuvor vazifalaridan biridir.

Xulosa o'rinda ta'kidlash lozimki, fuqarolarning murojaatlari instituti shunchaki ijtimoiy muloqot vositasi emas, balki kriminogen vaziyatni barvaqt prognoz qilish va profilaktika tizimini maqbullashtirishning eng samarali huquqiy mexanizmidir. Tadqiqot jarayonida murojaatlar tahlili orqali jinoyatchilikka qarshi kurashishning institutsional va protsessual asoslari tizimli o'rganildi. Aniqlanishicha, davlat organlariga kelib tushayotgan ariza va shikoyatlarni raqamli texnologiyalar hamda jadvashtirilgan ma'lumotlar bazasi (Big Data) yordamida qayta ishlash idoralararo hamkorlik samaradorligini tubdan oshiradi. Bu esa yashirin (latent) huquqbuzarliklarni aniqlash, xotinqizlarga nisbatan tazyiqlarning oldini olish va ijtimoiy-maishiy nizolarni barvaqt bartaraf etish imkonini beradi. Bir so'z bilan aytganda, sohaga oid qonunchilik bazasini takomillashtirish va murojaatlar bilan ishlashda tizimli monitoringni yo'lga qo'yish mamlakatda huquq-tartibotni ta'minlash va kriminologik xavfsizlikni mustahkamlashning ustuvor omili bo'lib xizmat qiladi.

## KORRUPSIYAVIY JINOYAT SODIR ETGAN ICHKI ISHLAR ORGANLARI XODIMI SHAXSINING KRIMINOLOGIK TAVSIFI



**DAVRANOV**  
**Xusniddin Baxranovich**

O'zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti  
ilmiy xodim-tadqiqotchisi

**Annotatsiya.** Maqolada Korruptsiyaviy jinoyat sodir etgan ichki ishlar organlari xodimi shaxsining kriminologik jihatlarini kompleks tarzda tahlil qilingan. Xususan, korruptsiyaviy xulq-atvorning ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy, institutsional, ma'naviy-axloqiy hamda tashkiliy-boshqaruv omillari ochib berilgan. Ichki ishlar organlari xodimlarning huquqiy madaniyati va kasbiy deformatsiyasi bilan bog'liq muammolarning korruptsiyaga ta'siri ilmiy jihatdan asoslangan. Shuningdek, xorijiy va milliy olimlarning jinoyatchi shaxsining kriminologik haqidagi nazariy qarashlari tahlil qilinib, ular asosida mualliflik yondashuvlari bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** ichki ishlar organlari, xodimlar, jinoyatchi shaxs, kriminologik tavsif, korruptsiya, mansab vakolatini suiiste'mol qilish, poraxo'rlik, huquqiy madaniyat, kriminologik omillar, korruptsiyani oldini olish.

**Аннотация.** В статье анализируются криминологические особенности личности сотрудника органов внутренних дел, совершившего коррупционное преступление. Рассматриваются социально-экономические, правовые, институциональные и нравственно-психологические факторы коррупционного поведения, а также влияние правовой культуры и профессиональной деформации на его формирование. На основе анализа научных подходов зарубежных и отечественных исследователей представлены авторские взгляды на криминологическую характеристику коррупционного преступника из числа сотрудников органов внутренних дел.

**Ключевые слова:** органы внутренних дел, коррупция, личность преступника, коррупционное поведение, факторы коррупции, злоупотребление служебным положением, взяточничество, правовая культура, профессиональная деформация, предупреждение коррупции.

**Abstract.** This article comprehensively analyzes the criminological aspects of the criminal personality of an employee of the internal affairs bodies who committed a corruption crime. In particular, the socio-economic, legal, institutional, spiritual-moral and organizational-managerial factors of corrupt behavior are revealed. The impact of problems related to the legal culture and professional deformation of employees of the internal affairs bodies on corruption is scientifically substantiated. Also, the theoretical views of foreign and national scientists on the criminological personality of the criminal are analyzed, and the author's approaches are outlined on their basis.

**Keywords:** internal affairs bodies, employees, criminal, criminological description, corruption, corruption factors, abuse of official authority, bribery, legal culture, criminological factors, prevention of corruption.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida "Davlat xalq irodasini ifoda etib, uning manfaatlariga xizmat qiladi.

Davlat organlari va mansabdor shaxslar jamiyat va fuqarolar oldida mas'uldirlar" [1; 2-b.], deb belgilangan. Bu mansabdor shaxslar zimmasiga mas'uliyat yuklaydi, albatta.

Korruptsiya hodisasi, avvalo, inson shaxsi bilan bog'liq. Korruptsiyaviy jinoyat sodir etgan shaxs – o'z mansab vakolatlaridan shaxsiy manfaatlar yo'lida foydalangan, qonun va ma'naviy mezonlarga zid ravishda harakat qilgan shaxs. Uning ushbu noqonuniy harakati orqali nafaqat davlat va jamiyat manfaatlariga putur yetadi, balki

### Foydalanilgan manbalar

1. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash — yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruza. // "Xalq so'zi" gazetasi, 2016-yil 8-dekabr. №242-y.(6677)
2. Ismailov I., Tursunov A.S. Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashishda davlat organlari va jamoatchilik tuzilmalarining hamkorligi. — Toshkent: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2017.
3. Ismailov I. Huquqbuzarliklar profilaktikasi: Darslik. — T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2012. — 320 b.
4. Axmedov B.R. Davlat boshqaruvida murojaatlar bilan ishlashning huquqiy asoslarini takomillashtirish: Yurid. fan. bo'yicha falsafa d-ri (PhD) ... dis. avtoref. — Toshkent: TDYUU, 2020.
5. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. — T.: "O'zbekiston", 2022.
6. Mirziyoyev Sh.M. "Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir". 1-jild. — Toshkent: "O'zbekiston", 2017.
7. Dadajonov, B. B. Ichki ishlar organlarida fuqarolarning murojaatlari bilan ishlash faoliyatini boshqarishni takomillashtirish: Yurid. fan. nomz. ... dis. avtoref. — Toshkent: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2011. — 26 b.
8. Azizov X.T. Huquqbuzarliklar profilaktikasida ijtimoiy sheriklik. — Toshkent: Akademiya, 2021. — 118-120-b.
9. Ismoilov I., Fazilov I.Yu. Kriminologiya: Darslik. — Toshkent: IIV Akademiyasi, 2021. — 410-415-b.
10. Долгова А.И. Криминология: Учебник для вузов / Под общ. ред. проф. А.И. Долговой. — 4-е изд., перераб. и доп. — Москва: Норма: Инфра-М, 2019. — С. 284–288.